O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI
PSIXOLOGIYA VA IJTIMOIY-
SIYOSIY FANLAR FAKULTETI

Ro‘yxatga olindi: № 60310400 -OAN1106 2024 yil “20” 14		**“TASDIQLAYMAN”** SamDU rektori: _____ R.I.Xalmuradov 2024 yil “__”_____

OILA VA GENDER SOTSIOLOGIYASI
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	300000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot:
Ta’lim sohasi:	310000 – Ijtimoiy va xulq-atvorga mansub fanlar:
Ta’lim yo‘nalishi:	60310400 – Sotsiologiya

Fan/modul kodi OAN1106	O‘quv yili 2024-2025	Semestr 1	ECTS – Kreditlar 6	
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili- O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 4 soat	

	Fan nomi	Auditoria mashg’ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami:
1.	Oila va gender sotsiologiyasi	80	100	180

II Fanning maqsadi (FM)	
2	Fanni o’qitishdan maqsadi - talabalarga mazkur fanning nazariy va amaliy asoslarini o‘zlashtirish, zamonaviy jamiyatlarda oila instituti joriy holati va undagi o‘zgarishlar tendensiyalari haqida nazariy-metodologik va ilmiy-amaliy bilim hosil qilishdan iborat. Fanning vazifasi – Oila va gender sotsiologiyasi oilaviy holat va o‘zgarishlarning xususiyatlari va o‘zgarishlari tendensiyalarini haqida ko’nikmalariga ega bo’lishi kerak. Oila va gender sotsiologiyasi ilg‘or g‘oyalari, ularning qoidalarini tahlil qila olishi; oila va gender siyosatining nazariy asoslaridan foydalana olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi. Olingan sotsial ahamiyatga molik axborotlarni umumlashtirish va ulardan ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish; atrof-muhitdan sotsial muammolarni topish va ularning nazariy tahlil qilish; Oila va gender sotsiologiyasining asoslari haqidagi bilim va malakaga ega bo‘lishi kerak.

Fan mazmuni	
II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg’ulotlari) II.I Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:	
Mashg’ulotlar shakli: ma’ruza (M)	
1-semestr. (40)	
M1	**Oila va gender sotsiologiyasi fan sifatida.** Oilani sosial institut sifatida vazifalari, mos keluvchi oilaviy xatti-harakat turlari. Oila – nikoh, qarindosh – urug’ tipologiyasi. Oilaviy guruh merosiylik va xokimiyatga ko’ra oilaning turlari. Oilaviy rollarning mujassamligi. Oila tuzilishi, hajmi, avlodlar soniga ko’ra turlari. Oila shajarasi. Oilaning tuzilganligidan to buzilishga qadar sodir bo’lgan xodisalarning klassifikasiyasi.
M2	**“Oila” tushunchasi, uning turlari va vazifalari. Oil ava nikoh munosabatlarining an’anaviy shakillari.** Oila kichik sotsial gurux sifatida. Oila va nikohning institusional funksiyalari. Oilada reproduktiv xulq-atvor. Oila-nikoh, qarindosh-urug’ tipologiyasi. Oilani ijtimoiy institut sifatida o’rganish. Oila institutining genezisi. Oila va nikoh institutining tarixiy shakllari. An’anaviy oilaviy xulq-atvor. An’anaviy nikoh shartlari, nikohning buzilish va mulkiy munosabatlar. Nikohiy tanlash omillari. Nikohiy tanlash teoriyalari.

M3	**Oila-nikoh munosabatlarda sotsial maqom va iyarxiya. Oilaviy hayot sikli va avlodlar almashinuvi.** Oilaning hayot sikli va o'z-o'zini saqlash. Oila tuzilishi, xajmi, avlodlar soniga ko'ra turlari. Oila shajarasi. Oilada avlodlararo munosabatlar iyerarxiyasi. Oilaning ijtimoiy mohiyatini tahlili. Oilani o'rganishda sotsiologik va psixologik yo'nalishlari Oilaviy munosabatlarda androgonistik yondashuv. Islom dinida oila-nikoh munosabatlari. Oilaning kichik guruh sifatida o'rganishdagi sotsiologik va psixologik yondashuvlar. Oilaviy birdamlik va "BIZ" hissi. Sotsial institutlar ta'rifi
M4	**Oilada gender munosabatlar.** Oilaning sosiologik va falsafiy ta'rifi. Oilaviy munosabatlar turlari. Matriarxat, patriarxat. Oilada majburiyatlar taqsimotida gender assimetriya. Oila kodeksi oilaviy munosabatlarni tartibga solishning asosiy manbasi sifatida. Er-xotinlarning shaxsiy huquqlari. Nikoh shartnomasi. Ajralish tartibi va shartlari. Oilada mulkiy munosabatlar. Zamonaviy o'zbek oilasi. Oilada shaxsning reproduktiv huquqlari. Nodavlat va kambag'al oilalarda gender munosabatlar. Oilada zo'ravonlik va kamsitish. An'anaviy va egalitar oilalarda ota-onalar va farzandlar o'rtasidagi munosabatlar.
M5	**Gender tadqiqotlarining nazariy-uslubiy asoslari.** Gender tadqiqotlarining vujudga kelishi va rivojlanishi. Gender tushunchasi. Gender tushunchasiga oid mavjud nuqtai-nazarlar va yondashuvlar. Biologik va ijtimoiy jins tushunchalari. Gender ijtimoiy-demografik kategoriya sifatida. Gender o'xshashlik. Gender mafkurasi. Gender roli. Genderdagi stratifikasiya.
M6	**Yosh oila:sotsial kategoriya sifatida.** Sotsiologiyada "yosh oila" ijtimoiy-demografik kategoriya sifatida.Yosh oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari.Yosh oilalarda ijtimoiy-psixologik adaptasiya muammolari. Yosh oilalarning buzilish omillari. Yosh oilalarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan siyosat.
M7	**Oila-nikoh munosabatlarining zamonaviy tendensiyalari.** Oila instituti transformasiyasi. Nikoh munosabatlarining zamonaviy shakllari va turlari. Oila va nikoh munosabatlarining parchalanishiga ta'sir ko'satuvchi global omillar. Ayollar mustaqilligi va oilaviy munosabatlar kurilishida o'zgarishlar. Tashqi texnogen omillarning oila va nikoh munosabatlariga ta'siri.
M8	**Rivojlangan davlatlarda oila-nikoh institut tanazzuli.** Nikoh va oila buzilishining ijtimoiy-psixologik omillari. Oilaning personalitar funksiyasi. Farb mamlakatlarida oila va nikoh munosabatlarining parchalanishi. Nikohning buzilishi va ajrashuvlar: global tendensiyalar. Norasmiy nikoh munosabatlar va farzandlar tarbiyasi. Oila va nikoh munosabatlarida gender tenglik amaliyoti.
M9	**Feminzm g'oyalarining shakillanishi va rivojlanishi.** Feminizm sosiomadaniy va ijtimoiy-siyosiy xarakat sifatida. Feminizm ta'riflari. XVII asrda feministik g'oyaning zaminlari. Feminizmning turli oqimlari. XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlarida G'arbiy Yevropa va Shimoliy Amerikada feminizm. Radikal feminizm. Psixoanalitik feminizm. Liberal feminizm. Sosial-feminizm. Postmodernistik feminizm.
M10	**Gender tengligi g'oyalarining nazariy-metodologik asoslari. Biodeterminizm: biologik omilning ayol va erkaklarning hayoti va hulq-atvoriga ta'siri.** Gender tadqiqotlarining vujudga kelishi va rivojlanishi. Gender tushunchasi. Gender ijtimoiy-demografik kategoriya sifatida. Gender identliklik. Gender segregasiya. Gender kutishlar va gender rollardagi zamonaviy transformasiyalar. Bolalar va kattalarning xulq-atvori, ularning jinsga bog'liqligi

	va oldindan belgilanganligiga biologik va gender yondashuvlarning farqli jihatlari. Biologik jins, sosial jins va jinsiylik. Jamiyat hayotining barcha sohalariga qaratilgan tadqiqotlarda gender yondashuvning muhimligi. Bolaning xulq-atvor me'yorlarini o'zida singdirishiga ta'sir etuvchi omillar: jamiyat an'analari, madaniyati, ochiq va yopiq diskriminasiya (kamsitilish).
M11	**Gender stereotiplari. Gender sosializasiyasi.** Gender stereotiplari tushunchasi va uning tasnifi. Gender stereotiplarining vazifalari. Gender stereotiplarini tadqiq etishning asosiy yo'nalishlari. Gender stereotiplarining paydo bo'lishi va o'zgarishi. Gender stereotiplarining siyosat, boshqaruv va oilaviy munosabatlardagi mazmuni. Gender stereotiplarining shakllanishida oila, ta'lim tizimi, din, OAV lari, davlat, siyosiy va sosial institutlarning roli. Gender sosializasiyasi. Gender sosializasiyasi jarayonida gender stereotiplarining singishi. Sosializasiya shakllari, institutlari va mexanizmlari. Gender stereotiplari ta'sirining salbiy oqibatlari.
M12	**Boshqaruvda gender tenglik.** Boshqaruvda gender muvozanat: patriarxat, paternalistik, feministik, liberal, egalitar yondashuv.Boshkaruvda gender tenglik konsepsiyasi. Boshkaruvda gender muvozanatni baxolash indikatorlari. Xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini qo'llab-quvvatlashda nodavlat tashkilotlarning roli. Boshqaruvda gender tenglik amaliyotining statistik ko'rsatkichlari.
M13	**Oila-nikoh munosabatlarda zamonaviy tendensiyalar. Oila va oila siyosati.** Oilaviy va demografik siyosatning mutanosibligi. Bir necha farzandli to'liq oilani mustaxkamlashga qaratilgan oilaviy siyosat. Oilaviy siyosat va oilaning kichik guruhlar sifatida hayot sikli davomida sotsial qo'llab quvvatlash. Oilaning alohida a'zolarining ijtimoiy himoyalash. Kam ta'minlangan oilalarning ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash.
M14	**Huquq va boshqaruv sohalarida gender yondashuv.** «Gender tenglik» tushunchasi. Gender tenglikni ta'minlashning qonuniy asoslari. Mehnat va mulkiy sohalarda huquqlar tengligi va uni ta'minlash. Erkak va ayollarning teng huquq va imkoniyatlarini ta'minlashga qaratilgan qonunchilik yo'nalishlari. Jinslar tengligi haqidagi xalqaro xujjatlar. «Davlat siyosati» tushunchasi. Ayol va erkaklar huquqlarini himoya etuvchi davlat siyosatlari: patriarxat, paternalistik, liberal, egalitlar. Siyosatda gender yondashuv va gender tahlil. Davlat gender siyosatining samaradorligini baholash indikatorlari. Gender tenglik konsepsiyasiga asoslangan siyosatni amalga oshirish texnologiyalari: ta'lim berish, analitik, bashorat qilish, nazorat qilish. Gender tenglikni ta'minlash siyosatining chet el tajribalari. Elektoral huquq. Ayollarning mahalliy boshqaruv organlaridagi faoliyati.
M15	**Shaxsning hayotiy strategiyasi: gender yondashuv.** «Hayotiy strategiya» tushunchasi. Hayotiy strategiya shakllari: hayot uchun kurash, rivojlanish, qadriyatli yo'nalish, shaxsning gender va professional identifikasiyasi, individual-psixologik tip, tashqi muhit barqarorligi. Ehtiyojlar darajalari. Hayotiy strategiya komponentlari: davlatdan kutiladigan sosial himoya, hayotiy yo'nalishlar, qadriyatlar, ijtimoiy faollik. Shaxsning gender, oilaviy identifikasiyasi va hayotiy strategiyasini tanlashi. Sosial adaptasiya yo'lini tanlashning gender jihatlari. Ayol va erkakning hayotiy strategiyasida karyeraning o'rni.
M16	**Oilaviy o'zgarishlar nazariyalari.** Oilaviy o'zgarishlar nazariyasini shakllantirish. Oilaning kelib chiqishiga bo'lgan qiziqishlar. Oilaning mustaxkamligi va jamiyatdagi turli o'zgarishlarga moslashuvi va evolyusion yondoshuvi. Oilaning sosial institut sifatidagi funksional nazariyalari. Funksionalizm va oilaviy vazifalarning boshqa institutlarga o'tishi.Oilani kichik gurux sifatida o'rganishdagi sosiologik va psixologik yondoshuvlar o'rtasidagi farqlar. Oilaviy birdamlik, Biz xissi: sevgi, sabr-toqatlilik, kechirimlilik,

	javobgarlik, majburiyat. Oilada shaxslararo munosabatlarning birlamchilik tamoyili: intim yaqinlik. Oilaviy konfliktlar (nizolar) turlari. Pozitiv va negativ oilaviy muxit. Oilaning buzilishi.
M17	**O'zbekistondagi gender muammolari.** O'tish davri va jamiyatdagi tub o'zgarishlarning gender jihatlari. Hukumatning xalqaro majburiyatlari va gender tenglik tashkilotlarining gender tenglikni ta'minlash borasidagi faoliyati. Ayollar huquqlarini himoya qilish borasida olib borilgan faoliyat samaralari. O'zbekistonda ayollarning gender tengligini ta'minlashning ijtimoiy va huquqiy asoslari.
M18	**Iqtisodiyotning gender jihatlari.** Iqtisodiy nazariyada gender yondashuv. Iqtisodiyotda gender omillarini tahlil qilishdagi yondashuvlar: neoklassik tahlil nuqtai-nazaridan yondashuv, radikal va sosial feminizm nuqtai nazaridan yondashuv; institusional iqtisodiyot nuqtai-nazaridan yondashuv. Makro va mikro darajadagi gender iqtisodiyot. Bandlikning gender jihatlari. Gender statistika. Feministik iqtisodiy nazariya. Uy xo'jaligining ishlab chiqarish funksiyasi.
M19	**Ta'lim va bandlik sohasida gender muvozanat.** Pedagogika tarixida gender omili. Ta'lim va gender notenglik. Ta'lim sohasida gender sigregasiyasi. Ta'lim sohasida gender notenglikni tushuntiruvchi nazariyalar. Maktab ta'limi nazariyalari. Pedagogikada an'anaviy, tanqidiy va feministik yondoshuvlar. Pedagogikada gender yondashuv. Bola tarbiyasida an'anaviy (jinsiy-rolli tarbiya) va gender (ijtimoiy-jinsiy tarbiya) yondashuvlar.
M20	**O'zbekistonda oila-nikoh institutini mustahkamlash mexanizmlari.** O'zbekistonda oilaparni qo'llab-quvvatlashda differensial yondashuv. Ijtimoiy xatar guruxiga mansub oilalar. Noqobil oila va deviantlik. Ajrimlar va ularning ijtimoiy oqibatlari. Ajrimlar profilaktikasida ijtimoiy xamkorlik. Oila va nikox munosabatlari barqarorligining ijtimoiy-iqtisodiy omillari.

Mashg'ulotlar shakli: Seminar (S)	
1- semestr. Oila va gender sotsiologiyasi. (40)	
S1	Oilava gender sotsiologiyasi fan sifatida
S2	"Oila" tushunchasi, uning turlari va vazifalari
S3	Oila-nikoh munosabatlarda sotsial maqom va iyarxiya. Oilaviy hayot sikli va avlodlar almashinuvi.
S4	Oilada gender munosabatlar.
S5	Gender tadqiqotlarining nazariy-uslubiy asoslari.
S6	Yosh oila:sotsial kategoriya sifatida.
S7	Oila-nikoh munosabatlarining zamonaviy tendensiyalari.
S8	Rivojlangan davlatlarda oila-nikoh institut tanazzuli.
S9	Feminzm g'oyalarining shakillanishi va rivojlanishi.
S10	Gender tengligi g'oyalarining nazariy-metodologik asoslari. Biodeterminizm: biologik omilning ayol va erkaklarning hayoti va hulq-atvoriga ta'siri.
S11	Gender stereotiplari. Gender sosializasiyasi.
S12	Boshqaruvda gender tenglik.
S13	Oila-nikoh munosabatlarda zamonaviy tendensiyalar. Oila va oila siyosati.
S14	Huquq va boshqaruv sohalarida gender yondashuv.
S15	Shaxsning hayotiy strategiyasi: gender yondashuv.
S16	Oilaviy o'zgarishlar nazariyalari.

S17	O'zbekistondagi gender muammolari.
S18	Iqtisodiyotning gender jihatlari.
S19	Ta'lim va bandlik sohasida gender muvozanat.
S20	O'zbekistonda oila-nikoh institutini mustahkamlash mexanizmlari.

Mustaqil ta'limni bajarish bo'yicha talablar:

"Oila va gender sotsiologiyasi" fani bo'yicha mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular vamustaqil ishlarning kalendar tematik rejasi

№	Mavzu nomi
1.	Tashqi texnogen omillarning oila va nikoh munosabatlariga ta'siri.
2.	Ayollar emansipasiyasi tushunchasi
3.	Zamonaviy oilalarda an'anaviy munosabatlar iyerarxiyasining buzilishi
4.	Zamonaviy oilalarda gender chegaralarning buzilishi
5.	Zamonaviy yoshlarda oilaviy juftlik tanloviga ta'sir ko'rsatuvchi omillar
6.	Zamonaviy jamiyatlarda oila va nikoh munosabatlarning turlari
7.	Rasmiylashtirilmagan munosabatlar va farzand tarbiyasi muammosi
8.	Oila sotsial institutining tanazzul davrining boshlanishi
9.	Oila va nikoh munosabatlarida an'anaviy karashlarni o'zgarishiga sabab bo'lgan omillar
10.	Oila va nikoh munosabatlari transformasiyasining rivojlangan davlatda kechishi
11.	Ayollar va erkaklar tengligi g'oyalarining amaliyotda qo'llanilishi
12.	Nikoh va oila buzilishining ijtimoiy-psixologik omillari.
13.	Oilaning personalitar funksiyasi.
14.	G'arb mamlakatlarida oila va nikoh munosabatlarining parchalanishi.
15.	Nikohning buzilishi va ajrashuvlar: global tendensiyalar.
16.	Norasmiy nikoh munosabatlar va farzandlar tarbiyasi.
17.	Oila va nikoh munosabatlarida gender tenglik amaliyoti.
18.	Xotin-qizlar manfaatlarini muhofaza qilish, ularning oila va umuman jamiyatdagi mavqyeini mustahkamlashga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar.
19.	Prezident SH.M.Mirziyoyev tomonidan xotin-qizlar masalalari borasida olib borilayotgan ijtimoiy yo'naltirilgan siyosat haqida.
20.	G'arb davlatlarida ilk sinfiy jamiyatlar paydo bo'lishida patriarxal tartiblar
21.	G'arb davlatlarida xotin-qizlarning ijtimoiy holati
22.	O'rta asrlar Yevropasida xotin-qizlar ijtimoiy maqomi
23.	Aristotel va Platon asarlarida xotin-qizlarning jamiyatdagi o`rni.
24.	Mariya Uolston-kraftning «Xotin-qizlar huquqi himoyasi» nomli kitobi haqida
25.	Yevropa hamda AQSHdagi feministik harakatlarning maqsadi.

26.	XX asrda xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va roli.
27.	Gender evolyutsiyasi.
28.	Qadimgi Hindistonda Manu III qonuni hamda unda ayollarning o`rni.
29.	Buddizmda ayollar obrazlari.
30.	Arab davlatlarida xotin-qizlarga bo`lgan munosabat
31.	Islomda ayolning haqlari
32.	Qadimgi Yunonistonda ayollarning ahvoli
33.	Mamlakatimizda xotin-qizlar ulushi.
34.	Mamlakatimizda xotin-qizlar mavqyeini yuksaltirish bosqichlari
35.	Qadim zamonlarda Sharq mamlakatlarida nima uchun qizni iloji boricha erta erga berganlar?
36.	Ta'lim-tarbiya sohalarida mehnat qilayotgan xotin-qizlar bilan olib borilayotgan ishlar yo'nalishlari.
37.	Ayollar mehnatini baholashda o'ziga xos omillarni sanab bering
38.	Ayollarning aqliy mehnat bilan band bo'lish samaradorligi
39.	Boshqaruv faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishda rahbar yoshi
40.	Boshqaruv sohasida olimlarning fikrlari

"Oila va gender sotsiologiyasi"fani bo'yicha mustaqil ta'lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko'nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Barcha keltirilgan mavzularni har biri to'g'risida talabalar qay tarzda o'zlashtirish, bilim ko'nikmasiga ega bo'lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.

3.	**V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: - **"Oila va gender sotsiologiya"** fanidan talabalar, ushbu davrda tarixiy tadqiqotlar ko'lami, davrning o'z dolzarb muammosini tadqiqotlarning metodologik asoslari haqida ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi;*** - Talaba **"Oil va gender sotsiologiya"** fanining alohida fan sifatida mavqyeiga ega bo'lishi, o'rganilayotgan davr va bugungi kun tarix fanining dolzarb muammolarini to'g'ri talqin qilish ***ko'nikmalariga ega bo'lishikerak***. - Talaba o'zlashtirayotgan fan bo'yicha egallagan bilimlarini tahlil qilish to'plangan tarixiy tajribani ilmiy va pedagogik amaliyotda samarali qo'llash ***malakalariga ega bo'lishikerak***.
4.	**VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:** • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • *munozara,* • *o'z-o'zini nazorat.* • "Aqliy hujum", • "Muammo"; • Krossvord • Annogrammalar Ko'chma dars mashg'ulotlari

5.	**VII. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'liq o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy nazorat shakllari, hamda mustaqil ta'limda berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

	Asosiy adabiyotlar
A1.	Bekmurodov M. "Sotsiologiya asoslari" T. Fan. 1994 yil. 78-bet.
A2.	Sotsiologiya. Darslik mualliflar jamoasi. T. 2002 yil. 123-145bet
A3.	Ўзбекистон Республикасининг Оила кодексига шарҳлар. –Т.: Адолат, 2023, 44-бет.
A4.	Qirg'izboyev M. Sotsiologiya. O'quv qo'llanma. -T.: Yangi asr avlodi, 2013, -524b
A5.	Tagiyeva G., Xusanova X.T. Oila va gender sotsiologiyasi. – Samarqand: SamDU, 2021.20-bet.
	Tavsiya qilinadigan qo'shimcha adabiyotlar
Q1.	Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. -T.: O'zbekiston. 2017. -486 b.
Q2.	Miziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. -T.: O'zbekiston, 2017 -592b.
Q3.	Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. -T.: O'zbekiston, 2018. -508 b.
Q4.	Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning, ishi ham ulug, hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild. -T.: O'zbekiston, 2019. -400 b.
Q5.	Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild. -T.: O'zbekiston, 2020. -456 b.
Q6.	Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.:O'zbekiston, 2021. -464 b.
Q7.	Temur tuzuklari. -T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2018. -184 b.
Q8.	Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. -T.: Yangi asr avlodi, 2018. -320 b.
	Axborot manbalari:
A1	www.prezident.uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti
A2	www.uza.uz – O'zbekiston Milliy axborot agentligi
A3	www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi hukumat portal
A4	www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
A5	http:/isrs.uz/ - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar institute
A6	https://qomus.info - Onlayn ilmiy ensiklopediya
A7	www.ziyouz.uz - Fan va ta'lim portali.
5.	Fan dasturi Samarqand davlat universiteti O'quv uslubiy Kengashining 2024 yil "___" _____dagi 1-son bayonnomasi bilan ma'qullangan.
6.	**Fan/modul uchun mas'ul:**

	Negmatova.D. – Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar fakulteti, "Sotsiologiya va ijtimoiy ish" kafedrasi asisstenti . D.Negmatova. .
7.	**Taqrizchilar:** - Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti, Psixologiya va ijtimoiy siyosiy fanlar fakulteti, "Sotsiologiya va ijtimoiy ish" kafedrasi dotsenti (ichki) I.Negmatov X.Ashurova – Samarqand Davlat chet tillar instituti, f.f.n, dots.

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug'i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta'lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma'sul ishchi guruhi:

Rais – M.Normamatova _____

Sotsiologiya va ijtimoiy ish kafedra mudiri **dots. I.Negmatov**

Psixologiya va ijtimoiy-siyosiy fanlar fakulteti dekani **prof. A.Q. Aymatov**

SamDU o'quv ishlari bo'yicha prorektor **prof. A.Soleev**